

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2024

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY



Bosh muharrir:

p.f.d., prof., S.T. Turg'unov

Mas'ul muharrir:

PhD., dots., A.A. Rasulov

Mas'ul muharrir o'rinbosari:

PhD., dots., O.N. Imomov

TAHRIR HAY'ATI

Fizika-matematika fanlari: akad. S. Zaynobiddinov
akad. A. A'zamov
f-m.f.d., prof. B. Samatov
f-m.f.d., dots. R. Hakimov
f-m.f.d., dots. B. Abdulazizov
f-m.f.n., dots. A. Xolboyev
f-m.f.n., dots. R. Jalalov

Biologiya fanlari: akad. K. Tojibayev
akad. R. Sobirov
b.f.d., prof. A. Batashov
b.f.d., prof. N. Abdurahmonov
b.f.d., prof. F. Kushanov
b.f.d., prof. A. Kuchboyev
b.f.d., dots. D. Dexqonov

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A. Umarov
t.f.d., prof. S. Yunusov

Tarix fanlari: akad. A. Asqarov
s.f.d., prof. T. Fayzullayev
s.f.d., prof. N.B. Dexkanov
t.f.d., prof. A. Rasulov
t.f.d., prof. M. Xaydarov

Falsafa fanlari: f.f.d., prof. M. Ismoilov
f.f.d., prof. B. Talapov
f.f.d. dots. Z. Isaqova
f.f.d., G. G'affarova
p.f.d., prof. T. Ismoilov
PhD. A. Abdullayev

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U. Inoyatov
p.f.d., prof. B. Xodjayev
p.f.d., prof. O'. Asqarova
p.f.n., dots. M. Nishonov
p.f.n., dots. A. Sattarov
p.f.n., dots. M. Asqarova
p.f.n., dots. Sh. Xo'jambardiyeva
p.f.d., dots. S. Abdullayev
PhD., dots. D. Sarimsakova
PhD., B. Urinov

Kimyo fanlari: akad. S. Nigmatov
k.f.d., prof. Sh. Abdullayev
t.f.d., dots. G'. Doliyev
k.f.n., dots. T. Sattarov
k.f.n., dots. A. Hurmamatov
PhD., dots. D.S. Xolmatov

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N. Uluqov
fil.f.d., prof. H. Usmanova
f.f.n., dots. Q. Siddiqov
PhD. H. Solixo'jayeva
PhD. dots. U. Qo'ziyev
PhD. H. Sarimsoqov
fil.f.d., N. Dosbayeva

Qishloq xo'jaligi fanlari: g.f.d., prof. B. Kamalov
q-x.f.n., dots. A. Qazaqov

Geografiya fanlari: g.f.d., dots. B. Kamalov
g.f.d., prof. A. Nigmatov
g.f.d., dots. A. Nazarov

Iqtisodiyot fanlari: i.f.d., prof. N. Maxmudov
i.f.d., prof. O. Odilov

Tibbiyot fanlari: b.f.d., prof. G'. Abdullayev
tib.f.n., dots. S. Boltaboyev

Psixologiya fanlari: p.f.d., prof. Z. Nishanova
p.f.n., dots. M. Maxsudova

Texnik muharrir: S. Xoshimov

Rasmiy web sahifa: journal.namdu.uz

Tahririyat manzili: Boburshox ko'chasi, 161-uy

Faks: (0369)227-07-61 **e-mail:** science@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамДУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 -raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458) ga ega. NamDU Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2024-yil 26-noyabrda 8-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 8). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-11]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Avazbek Yo'ldashev

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
aayoldoshev@gmail.com

SUN'IY INTELEKTNING SOHALARARO ALOQADORLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellektning (SI) sohalararo aloqadorligi chuqur o'rganilgan bo'lib, u turli fan va tarmoqlarda qanday qo'llanilishi, ilm-fan va jamiyat taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatishi muhokama qilingan. Sun'iy intellektning tibbiyot, huquqshunoslik, iqtisodiyot, ta'lim, sanoat va boshqa ko'plab sohalarida qo'llanishi, turli murakkab muammolarni hal etish va qarorlar qabul qilishda qanday yordam berishi haqida keng ko'lamli ma'lumot berilgan. Maqolada sun'iy intellektning falsafiy jihatlarini, tarixi, ilmiy asosi va sohalararo tahlillari batafsil ko'rib chiqilib, hozirgi zamon ilmiy tadqiqotlari bilan bog'liq natijalar taqdim etilgan. SI texnologiyalarining amaliy qo'llanilishi va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt (SI), neyron tarmoqlar, mashinani o'rganish (ML), chuqur o'rganish (DL), ekspert tizimlar, turing testi, falsafiy tahlil, sohalararo aloqadorlik, algoritmlar, avtomatlashtirish, ma'lumotlarni qayta ishlash, axborot xavfsizligi, ma'lumotlar bazasi, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), robototexnika, evolyutsion hisoblash, ko'p agentli tizimlar, etika va sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), qaror qabul qilish tizimlari.

Avazbek Yoldashev

Teacher of Chirchik State Pedagogical University

INTERFIELD RELATIONSHIP OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Annotation: This article explores the interdisciplinary nature of artificial intelligence (AI), discusses how it is used in different disciplines and industries, and how it affects the development of science and society. Extensive information is provided on how artificial intelligence can be used in medicine, law, economics, education, industry, and many other fields to help solve complex problems and make decisions. Philosophical aspects, history, scientific basis and interdisciplinary analyzes of artificial intelligence are considered in detail in the article, and results related to current scientific research are presented. Practical application of AI technologies and future development prospects are discussed.

Keywords: Artificial Intelligence (SI), Neural Networks, Machine Learning (ML), Deep Learning (DL), Expert Systems, Turing Test, Philosophical Analysis, Interdisciplinarity, Algorithms, Automation, Ma data processing, information security, database, natural language processing (NLP), robotics, evolutionary computing, multi-agent systems, ethics and artificial intelligence, big data (Big Data), decision making systems.

Авазбек Юлдашев

Преподаватель Чирчикского государственного педагогического университета

МЕЖОТРАСЛЕВАЯ СВЯЗЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация: в этой статье подробно рассматривается межотраслевая взаимосвязь искусственного интеллекта (ИИ), обсуждается, как он применяется в различных дисциплинах и отраслях, как он влияет на развитие науки и общества. Предоставляется обширная информация о применении искусственного интеллекта в медицине, юриспруденции, экономике, образовании, промышленности и многих других областях, а также о том, как он может помочь в решении различных сложных проблем и принятии решений. В статье подробно рассматриваются философские аспекты, история, научная основа и межотраслевой анализ искусственного интеллекта, а также представлены результаты, относящиеся к современным научным исследованиям. Обсуждается практическое применение и перспективы дальнейшего развития технологий Си.

Ключевые слова: искусственный интеллект (Si), нейронные сети, машинное обучение (ML), глубокое обучение (DL), экспертные системы, тест Тьюринга, философский анализ, межотраслевая коммуникация, алгоритмы, автоматизация, обработка данных, информационная безопасность, базы данных, обработка естественного языка (НЛП),

Kirish

Sun'iy intellekt (SI) bugungi texnologik rivojlanishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, insoniyat uchun keng ko'lamli imkoniyatlar yaratmoqda. Bu tushuncha asosan inson miyasi kabi murakkab va o'zaro bog'liq jarayonlarni avtomatlashtirish va muhim qarorlar qabul qilishda yordam beradigan kompyuter tizimlarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. SI dastlabki yillarda mantiqiy hisoblash modellariga asoslangan bo'lsa-da, hozirgi vaqtda neyron tarmoqlar, mashinani o'rganish (ML) va chuqur o'rganish (DL) kabi ilg'or texnologiyalar SI ning eng muvaffaqiyatli usullari sifatida tan olindi.

Sun'iy intellekt bugungi kunda raqamli iqtisodiyot va global texnologik taraqqiyotning asosi bo'lib qolmoqda. U turli sohalarida insoniyatning ilg'or yutuqlarini ta'minlab, yangi kashfiyotlarni rag'batlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Russell va Norvig (2021) sun'iy intellektning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishda uning kelajakka ta'sirini chuqur tahlil qilib, texnologiyalarning rivojlanishi jamiyat va iqtisodiyotda qanday o'zgarishlarni yuzaga keltirayotganini o'rganib chiqdi [7].

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ilmiy, texnologik va falsafiy jihatlarini ushbu sohani o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'lib, kelajakdagi ilmiy tadqiqotlar uchun yangi muammolar va imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Ushbu maqolada sun'iy intellektning sohalararo aloqadorligi va uning turli sohalariga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi va xulosalar keltiriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Sun'iy intellekt texnologiyalari har bir sohada qanday rivojlanganligi, ularning qo'llanilishi, texnologik va falsafiy muammolariga e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, sun'iy intellekt faqat texnologik yo'nalishda emas, balki jamiyat, falsafa, iqtisodiyot, huquq va axloqiy jihatlar bilan ham chuqur bog'liqdir.

Alan Turing (1950) tomonidan taklif qilingan Turing testi sun'iy intellektning rivojlantirishning muhim qadamlaridan biri bo'lib, bu tushuncha texnologiya va inson aqli o'rtasidagi farqni aniqlashga qaratilgan. Turingning "Computing Machinery and Intelligence" maqolasida kompyuterlarning inson aqli bilan o'xshash xatti-harakatlarga ega bo'lishi mumkinligini ta'kidladi va mashinalarning fikrlash qobiliyatlarini sinovdan o'tkazish uchun test ishlab chiqdi [1]. Ushbu test sun'iy intellekt texnologiyalarining kelajakdagi rivojlanishiga asos bo'lib, uning qanchalik kuchli bo'lishi masalasini ko'taradi.

Russell va Norvig (2016) tomonidan chop etilgan "Artificial Intelligence: A Modern Approach" asari sun'iy intellekt texnologiyalarining turli jihatlarini keng yoritadi.

Ular neyron tarmoqlar, algoritmlar va chuqur o'rganish tizimlarining rivojlanishini ko'rsatib, texnologiyalarning sohalararo qo'llanilishiga e'tibor qaratadilar. Masalan, ushbu asarda tibbiyot, avtomobilsozlik, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ko'plab sohalarida sun'iy intellektning o'rni tahlil qilingan [8].

Floridi (2014) sun'iy intellektning falsafiy va axloqiy jihatlarini chuqur tahlil qilgan. Uning "The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality" kitobida sun'iy intellekt jamiyatda qanday axloqiy muammolarni keltirib chiqargani va bu texnologiyalar inson huquqlari, shaxsiy hayot va ma'lumotlar xavfsizligiga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Floridi SI texnologiyalari axloqiy masalalar bilan chuqur bog'liq bo'lib, ularni amaliyotga tatbiq qilishda falsafiy yondashuv talab qilinishini ta'kidlaydi [9].

Bostrom (2014) tomonidan yozilgan "Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies" asarida sun'iy intellekt texnologiyalarining kelajakdagi xavflari va imkoniyatlari chuqur tahlil qilingan. Bostrom sun'iy intellektning global xavfsizlikka ta'sirini o'rganadi va texnologiyalar rivojlanishi bilan kelajakda insoniyat uchun xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan holatlar haqida ogohlantiradi. U sun'iy intellektning rivojlantirish jarayonida axloqiy va falsafiy tamoyillarni ko'zdan kechirish zarurligini ta'kidlaydi [10], bu esa texnologiyaning sohalararo aloqadorligini tushunishda muhimdir.

Muhokama va natijalar

Sun'iy intellekt tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi uzoq tarixga ega bo'lib, u matematik mantiq, hisoblash texnologiyalari va falsafiy izlanishlar bilan bog'liqdir. Dastlabki asarlar matematik mantiq va algoritmik jarayonlarga asoslangan bo'lsa-da, Alan Turing (1950) tomonidan "Computing Machinery and Intelligence" maqolasida taklif qilingan mashinalarning aql qobiliyatini sinovdan o'tkazish g'oyasi ushbu sohaning rivojlanishiga asos bo'ldi. Turing tomonidan ishlab chiqilgan Turing testi mashinalarning inson kabi fikrlash imkoniyatini sinash uchun muhim tamoyil sifatida qabul qilindi. U ushbu testda mashinalarning inson bilan suhbatlashish qobiliyatini baholash imkoniyatlarini o'rgangan [1].

Sun'iy intellekt atamasi ilk bor John McCarthy (1956) tomonidan Dartmouthda o'tkazilgan konferensiyada taqdim etilgan bo'lib, u sun'iy intellektning kompyuterlarni inson kabi muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega qilish imkoniyatlarini o'rganish sifatida belgilagan [2]. McCarthy va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar sun'iy intellektning ilmiy asoslarini yaratdi va

bu soha XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadal rivojlanishni boshladi.

1950-1960-yillar davomida olimlar sun'iy intellekt sohasida bir qator muvaffaqiyatli tadqiqotlar o'tkazishdi. Newell va Simon (1961) tomonidan ishlab chiqilgan "General Problem Solver" (GPS) algoritmi inson miyasidagi muammolarni hal qilish qobiliyatini taqlid qilishga urinib ko'rilgan dastlabki modellaridan biri edi [3]. Ular sun'iy intellektning mantiqiy qoidalar asosida ishlaydigan algoritmlar yaratishga asoslanganligi haqida birinchi fikrlarni ilgari surishdi.

1970-yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanib, u "ekspert tizimlari"ga asoslangan holda tibbiyot, huquq, iqtisodiyot va boshqa sohalarida qo'llanila boshladi. Feigenbaum (1977) ekspert tizimlari orqali turli sohalarida murakkab qarorlar qabul qilishni avtomatlashtirishda sun'iy intellektning imkoniyatlarini tahlil qildi. Ularning tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan ekspert tizimlari tibbiyot va iqtisodiyot sohalarida qo'llanila boshlangan [4].

Sun'iy intellektning falsafiy tomoni esa inson aqlining tabiati va uni mashinalar orqali qayta yaratish imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan. Ushbu sohada olib borilgan izlanishlar inson aqli, ong va sun'iy tizimlar o'rtasidagi farqlarni chuqur tahlil qilishga imkon beradi. Searle (1980) o'zining mashhur "Xitoy xonasi" tajribasi bilan sun'iy intellektning ong va tushunchaga ega bo'lishi masalasini ko'tarib chiqdi. U sun'iy intellekt tizimlari qoidalar asosida ishlashi mumkin, ammo inson kabi chuqur tushunchaga ega emasligini ta'kidlaydi [5].

Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi yangi bosqichga o'tdi. Neyron tarmoqlar, chuqur o'rganish va tabiiy tilni qayta ishlash kabi ilg'or yondashuvlar kompyuter tizimlarining inson aqliga yaqinlashishiga imkon yaratmoqda. LeCun, Bengio va Hinton (2015) o'z tadqiqotlarida chuqur o'rganish texnologiyalari orqali kompyuterlar inson miya tarmoqlarini taqlid qilib, murakkab vazifalarni samarali hal qilishini ko'rsatib berdi [6]. Chuqur o'rganishning rivojlanishi sun'iy intellektning keng ko'lamda qo'llanilishiga sabab bo'ldi va bugungi kunda tibbiyot, sanoat, ta'lim va boshqa ko'plab sohalarida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining sohalararo aloqadorligi turli sohalarida samarali qo'llanila boshlandi. Hususan, Tibbiyot sohasida sun'iy intellektning roli sezilarli darajada o'sib bormoqda. SI algoritmlarining diagnostika, prognozlash va davolash strategiyalarini ishlab chiqishda ishlatilishi tibbiyotda yangi yondashuvlarni keltirib chiqarmoqda. Jha va Topol (2016) o'z tadqiqotlarida tibbiyot sohasida chuqur o'rganish algoritmlari orqali rentgen va MRT tekshiruvlarida kasalliklarni aniqlashning samaradorligini tahlil qiladilar. Ularning natijalariga ko'ra, sun'iy intellekt an'anaviy

diagnostika usullariga nisbatan ancha tez va to'g'ri ishlashi kuzatilgan [11].

Ushbu texnologiyaning natijalari tibbiyotda quyidagi yutuqlarni keltirib chiqardi: Rentgen tahlillari aniqligi oshishi: Sun'iy intellekt algoritmlari rentgen va tibbiy suratlarni tahlil qilishda 98% aniqlikka erishdi, bu an'anaviy usullar bilan solishtirilganda yuqori ko'rsatkich hisoblanadi.

Kasalliklarning oldindan prognoz qilinishi: Sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan prognozlash tizimlari, masalan, yurak-qon tomir kasalliklarini aniqlashda muvaffaqiyatga erishdi. Esteve va boshqalar (2017) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda sun'iy intellekt algoritmlari orqali teri saratonini dastlabki bosqichlarida aniqlash imkoniyati 91% gacha yetdi [12].

Iqtisodiyot va Avtomatlashtirish – iqtisodiyotda sun'iy intellekt texnologiyalari, xususan, avtomatlashtirish jarayonlari, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Brynjolfsson va McAfee (2014) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sun'iy intellekt avtomatlashtirish texnologiyalari orqali ishlab chiqarish jarayonlarida inson mehnatini sezilarli darajada qisqartirishi ko'rsatilgan. Ularning tadqiqotlari sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyotdagi yangi imkoniyatlarni ochib berganligini ko'rsatadi. Natijada, ishlab chiqarishdagi avtomatlashtirilgan tizimlar odamlarning bajarishi mumkin bo'lgan bir qator vazifalarni o'z zimmasiga oladi, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshirishga imkon beradi [13].

Ta'lim sohasida sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim jarayonlarini avtomatlashtirish va talabalarning o'qituvchilarga bo'lgan bog'liqligini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Luckin (2017) ta'lim sohasida sun'iy intellektning o'rganish jarayonlariga qo'shgan hissasini tahlil qilib, bu texnologiyalarning ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdagi rolini ta'kidlaydi. Ularning tadqiqotlari natijasida SI asosida ishlab chiqilgan o'quv dasturlari va yordamchi tizimlar orqali talabalar bilimlarni tezroq o'zlashtirishi aniqlangan. Sun'iy intellekt o'quvchilarning o'ziga mos o'quv rejalarini yaratishga, shuningdek, ularning ta'lim jarayonidagi zaif nuqtalarini tezroq aniqlashga yordam beradi [14].

Xavfsizlik va huquqshunoslik sohalarida sun'iy intellektning roli tobora ortib bormoqda. Richard Susskind (2013) o'z asarlarida sun'iy intellektning huquqshunoslikda qo'llanilishini ko'rsatib, huquqiy masalalarni avtomatlashtirish, shuningdek, sud jarayonlarida huquqiy tahlillarni tezlashtirish imkoniyatlarini ta'kidlaydi. Susskind sun'iy intellekt yordamida huquqiy hujjatlarni tahlil qilish va tezda javob olish imkoniyatini ko'rsatadi. Bu esa sud jarayonlari samaradorligini oshiradi va inson resurslariga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi [15].

Sun'iy intellekt texnologiyalari kelajakda yanada kengayib, ko'proq sohalariga kirib borishi kutilmoqda.

Bostrom (2014) kelajakdagi sun'iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlari va xavflarini tahlil qilib, ularning global miqyosda jamiyatga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida fikr yuritgan. U sun'iy intellektning insoniyat oldidagi muammolarni hal qilishda o'ziga xos yechimlar taklif qilishini ta'kidlaydi. Biroq, sun'iy intellekt texnologiyalari noto'g'ri ishlatilgan taqdirda, ular xavf tug'dirishi mumkinligini ham eslatadi [10].

Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, sun'iy intellekt texnologiyalari turli sohalarida sezilarli natijalar beradi. Sun'iy intellekt nafaqat tibbiyot, iqtisodiyot, ta'lim va xavfsizlik sohalarida, balki kelajakda boshqa ko'plab sohalarida ham yangi imkoniyatlarni yaratishi mumkin. Texnologiyalarni rivojlantirishda axloqiy va huquqiy tamoyillarga rioya qilish muhimdir. Shu bilan birga, sun'iy intellektning xavfsizligi va insoniyatga xizmat qilishi uchun ehtiyotkorlik bilan yondashish zarurligi qayd etildi.

Xulosa

Sun'iy intellektning (SI) rivojlanishi va uning turli sohalar bilan o'zaro aloqadorligi hozirgi zamon ilmi-fanining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada sun'iy intellektning tibbiyot, iqtisodiyot, ta'lim, xavfsizlik, huquqshunoslik kabi asosiy sohalaridagi qo'llanilishi va ushbu sohalarida olib kelgan natijalari batafsil tahlil qilindi. Birinchi navbatda, tibbiyotda sun'iy intellekt algoritmlari orqali kasalliklarni aniqlash va davolash jarayonlari sezilarli darajada tezlashdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt ko'pchilik diagnostika usullarida insondan ko'ra aniqroq va samaraliroq natijalarni beradi. Jha va Topol (2016) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar sun'iy intellektning kardiologiyada muvaffaqiyatli qo'llanilishi bilan kasalliklarni aniqlash samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shayotganligini ta'kidlaydi [11].

Iqtisodiyot sohasida sun'iy intellekt texnologiyalari avtomatlashtirish orqali ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini tezlashtiradi va inson resurslariga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi. Brynjolfsson va McAfee (2014) ning fikricha, sun'iy intellekt kelajakda iqtisodiyotning yangi yo'nalishlari va innovatsiyalarini yaratishda muhim omil bo'ladi. Avtomatlashtirilgan

ishlab chiqarish jarayonlari nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshiradi, balki mahsulot sifatini ham sezilarli darajada yaxshilaydi [16].

Ta'lim sohasida sun'iy intellekt yordamida individual o'quv dasturlari yaratish va o'quvchilarning ehtiyojlariga mos keladigan bilimlarni taqdim etish imkoni paydo bo'ldi. Luckin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida sun'iy intellekt talabalarining ta'lim jarayonidagi bilimlarni o'zlashtirishini sezilarli darajada tezlashtirishi ko'rsatib o'tilgan. Bu o'z navbatida o'qituvchilarning ishini yengillashtiradi va ta'lim sifatini oshiradi [14].

Huquqshunoslik va xavfsizlik sohalarida ham sun'iy intellekt ko'plab jarayonlarni avtomatlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Richard Susskind (2013) sun'iy intellektning huquqiy masalalarni tezlashtirish va aniqlikni oshirishdagi rolini ta'kidlaydi. Sun'iy intellekt asosida huquqiy masalalar avtomatlashtiriladi, bu esa sud jarayonlari va yuridik xizmatlar samaradorligini oshiradi [15].

Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalari yanada kengroq ko'lamda qo'llanilib, ko'proq sohalarida rivojlanish keltirib chiqarishi kutilmoqda. Bostrom (2014) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar sun'iy intellekt texnologiyalarining insoniyat hayotiga ta'sirini o'rganib chiqadi va texnologiyaning nafaqat samaradorlik, balki xavfsizlik nuqtai nazaridan ham e'tiborli bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi [10]. Biroq, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq ba'zi axloqiy va huquqiy masalalar ham muhokama qilinishi zarur. Texnologiyalarni noto'g'ri maqsadlarda ishlatish xavfi har doim mavjud. Shu sababli, texnologiyalarning nazorati va inson manfaatlariga xizmat qilishini ta'minlash katta ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, sun'iy intellektning sohalararo aloqadorligi global iqtisodiyot, jamiyat va ilmiy tadqiqotlar rivojida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. SI texnologiyalari har bir sohada samaradorlikni oshirish bilan birga, inson resurslari va mehnatini samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, SI'ning ahloqiy va huquqiy masalalari chuqur o'rganilib, texnologiyalar insoniyat manfaatlariga xizmat qilishini ta'minlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turing, A. M. (1950). Computing machinery and intelligence. "Mind", 59(236), 433-460.
2. McCarthy, J., Minsky, M., Rochester, N., & Shannon, C. E. (2006). A Proposal for the Dartmouth Summer Research Project on Artificial Intelligence, August 31, 1955. "AI Magazine", 27(4), 12-14.
3. Newell, A., & Simon, H. A. (1961). GPS, a program that simulates human thought. "Stanford Research Institute".
4. Feigenbaum, E. A. (1977). The art of artificial intelligence: Themes and case studies of knowledge engineering. "Proceedings of the Fifth International Joint Conference on Artificial Intelligence".
5. Searle, J. (1980). Minds, brains, and programs. "Behavioral and Brain Sciences", 3(3), 417-424.
6. LeCun, Y., Bengio, Y., & Hinton, G. (2015). Deep learning. "Nature", 521(7553), 436-444.
7. Russell, S., & Norvig, P. (2021). "Artificial Intelligence: A Modern Approach". 4th ed. Pearson.
8. Russell, S., & Norvig, P. (2016). "Artificial Intelligence: A Modern Approach" (3rd ed.). Pearson.

9. Floridi, L. (2014). "The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality". Oxford University Press.
10. Bostrom, N. (2014). "Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies". Oxford University Press.
11. Jha, S., & Topol, E. (2016). Machine learning and artificial intelligence in cardiology. "Nature Reviews Cardiology", 13(8), 451-459.
12. Esteva, A., Kuprel, B., & Novoa, R. A. (2017). Dermatologist-level classification of skin cancer with deep neural networks. "Nature", 542(7639), 115-118.
13. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). "The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies". W.W. Norton & Company.
14. Luckin, R. (2017). The impact of artificial intelligence on learning. "British Journal of Educational Technology", 48(6), 1535-1553.
15. Susskind, R. (2013). "Tomorrow's Lawyers: An Introduction to Your Future". Oxford University Press.
16. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). "The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies". W.W. Norton & Company.
17. G'affarova, G.G. (2024). Kreativlik falsafasi. NamDU ilmiy xabarlar. 6-son, 280-283 b
18. Гаффарова, Г. (2023). Молодежного сознания в цифровом обществе. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(2), 13-17
19. Gulamzhanovna, G.G. (2024). The Need for Creativity in the Development of Human Capital. Miasto Przyszłości, 52, 685-690.
20. G'affarova, G.G'. (2024) METAETIKA PARADIGMASI. Globallashuv davrida fan, ta,,lim va ishlab chiqarishning o,,zaro hamkorligi masalalari. 2-son, 737-741.
21. G.G. G'affarova, U.I. Muzaffarov (2024). Yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish: mohiyati va muammolar. NamDU ilmiy xabarlar, 6-son, 294-298.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-11]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Saburov Jaloliddin
BuxDU tadqiqotchisi
saburovjalol88@mail.com

UDK:94(575/146-25):28

BUXORODA TASAVVUF TARIQATINING KIRIB KELISHI VA RIVOJLANISH DAVRI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoroda tasavvuf tariqatining krib kelishi davrida ilm-fan va islom ilmlari rivoji unda ijtimoiy ma'naviy muhit va davrning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Qur'on, hadis, fiqh va tasavvuf ilmlarini o'rganishga bo'lgan rag'bat kishilar ma'naviy hayotidagi o'rni birlamchi manbalar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro, Tasavvuf, Tasavvuf tariqati, ma'naviyat, ilm, ma'rifat, tasavvuf, hadis, fiqh, tafsir, insonparvarlik, madaniyat, ijtimoiy hayot, axloq.

Сабуров Джалолиддин
научный сотрудник БухГУ

ПЕРИОД ПРИХОДА И РАЗВИТИЯ МИСТИЦИЗМА В БУХАРУ

Аннотация: В данной статье анализируется развитие науки и исламских наук ко времени прихода суфизма в Бухару, социальная и духовная среда и особенности этого периода. На основе первоисточников раскрывается мотивация изучения Корана, хадисов, фикха и мистики в духовной жизни людей.

Ключевые слова: Бухара, суфизм, суфизм, духовность, знание, просвещение, суфизм, хадисы, правоведение, толкование, гуманизм, культура, общественная жизнь, этика.

Saburov Dzhaloliddin
research fellow at Bukhara State University

THE PERIOD OF THE ARRIVAL AND DEVELOPMENT OF MYSTICISM IN BUKHARA

Annotation: This article analyzes the development of science and Islamic sciences by the time of the arrival of Sufism in Bukhara, the social and spiritual environment and features of this period. Based on primary sources, the motivation for studying the Koran, hadith, fiqh and mysticism in the spiritual life of people is revealed.

Keywords: Bukhara, Sufism, Sufism, spirituality, knowledge, enlightenment, Sufism, hadith, jurisprudence, interpretation, humanitarianism, culture, social life, ethics.

Kirish

X-XII asrlarda Markaziy Osiyoda tafsir, hadis, fiqh, aqida kabi ilmlarga chuqur e'tibor qaratilishi bilan bir qatorda tasavvuf maktablariga ham asos solindi, desak mubolag'a bo'lmaydi. O'z navbatida tasavvuf ta'limoti Buxoro aholisining ijtimoiy va ma'naviy hayotiga chuqur kirib borishi natijasida fan, madaniyat va adabiyot sohalarida o'ziga xos burulish yasadi.

Buxoroda tasavvuf ta'limotining tarqalishi o'z davrining yetuk so'fiy allomasi Xoja Yusuf Hamadoni (1048-1141) nomi bilan bog'liq. Yusuf Hamadoni maktabida ilmu irfon sabog'ini olgan Ahmad Yassaviy va Abduxoliq G'ijduvoniylar mintaqada tasavvuf taraqqiyotining keyingi bosqichlarida muhim o'rin

tutdilar va ikki mustaqil tariqat: Yassaviyya va Xojagon-Naqshbandiya tariqatlariga poydevor qo'ydilar.

Xojagon tariqati XIV asrga kelib, Bahouddin Naqshband tomonidan yanada takomillashtirildi. Xoja Muhammad Porso, Xoja Ahror, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi yirik shaxslarning faoliyati esa Xojagon-Naqshbandiya tariqatining keyingi vakillariga ijobiy ta'sir qildi va ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etishlari uchun turtki bo'ldi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Tasavvuf jamiyat hayotida o'ziga xos islom dini targ'ibotini mustahkamlashda, odamlarni poklikka, halol mehnat qilishga, zulm va zo'ravonliklardan tiyilishga undadi. So'fiy kishilar turmush tarzi ma'naviy-axloqiy qiyofasi xalqni halimlikka, axloqiy komillikka erishishda

xususiyatlari.

M.Yuldashev, G.Umaraliyeva.....	307
Current perspectives on the role of the cytokine system in the development of acute pancreatitis (literature review).	
N.Abdullayeva, Z.Ziyamutdinova, Z.Allaniyazova.....	311
G'o'zaning turlararo g.hirsutum/g.babbar chatishuvchanligi, duragay F₀ chigitlarni tuguvchanligi va unuvchanligi, duragay F₁ nihollarni yashovchanligi.	
A.Rustamov, Sh.Boxujayev, M.Sanamyan.....	315
Magnoliya o'simligi urug'lari tarkibidagi mikro - makro elementlari tarkibini va antioksidant faolligini o'rganish.	
F.Tuxtabayeva, M.Abduvaxopova, S.Muxamadjonov, N.Mo'ydinova, M.Xoshimjonova.....	320
Streptomyces spectabilis shtamining antibiotikka chidamli bakteriyalarga qarshi faolligini baholash.	
N.Abdunazarov.....	324
Asaka-adir suv omboridagi yashil suvo'tlari (chlorophyta.)	
X.Ergasheva.....	328

FALSAFA FANLARI
09.00.00 - ФИЛОСОФСКИЕ НАУКИ
PHILOSOPHICAL SCIENCES

Abu Rayhon Beruniy asarlarida muammolarning yechimi haqida.	
D.Normatova, S.Muxammadova.....	331
Kitobxonlik – ma'naviyat asosi.	
I.Quvondiqov.....	335
Ziyorat turizmida geoaxborot davr talabi.	
A.Abdiyev, J.Qosimov.....	339
Harbiy xizmatchilar mafkuraviy immunitetini rivojlantirishning mafkuraviy-siyosiy jihatlari.	
Y.Xoliqov.....	346
Zamonaviy jamiyatni rivojlanishida inson kapitalining o'rn.	
I.Toshpulatov.....	352
Yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning ahamiyati (ijtimoiy-falsafiy tahlil).	
A.Isomiddinov.....	355
Общественно-политические процессы между Бухарским эмиратом и Кашкадарьинским оазисом беклики.	
Г.Хидирова.....	358
Jamiyat taraqqiyotiga ijtimoiy tengsizlikning ta'siri.	
X.Asqarov.....	362
Yangi O'zbekistonda sog'lom inson kapitalini rivojlantirishning tibbiy-falsafiy jihatlari.	
A.Xudayberdiyev.....	366
Ijtimoiy harakatchanlikning milliy xarakterda namoyon bo'lishi.	
Sh.Usmonova.....	371
Imom Termiziyning "Sunan" Asarida Fiqhni Bayon Qilish Uslubi.	
I.Temirov.....	375
Shayx Najmiddin Kubro buyuk vatanparvarlik timsoli.	
I.Jabborov.....	378
Mustaqil ta'lim faoliyati asosida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.	
F.Ikramov.....	382
Jamiyatning madaniy-ma'rifiy va axloqiy tafakkurini yukslishida keksa avlod tajribasining roli.	
N.Axmadiyev, A.Xolmatjonov.....	387
«ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА».	
A.Мадаминов.....	391
Hozirgi davrda noosfera g'oyalarining o'ziga xos xususiyatlari.	
N.Tangirov.....	399
Turkistonda jadidlik g'oyalarini shakllanishi: tarixiy-falsafiy tahlil.	
Z.Isaqova, A.Abdullaxo'jayev.....	404
Sun'iy intellektning sohalararo aloqadorligi.	
A.Yo'ldashev.....	408
Buxoroda tasavvuf tariqatining kerib kelishi va rivojlanish davri.	
J.Saburov.....	413
AQSHning Markaziy Osiyodagi manfaatlarini qayta ko'rib chiqish: yangi strategiya zarurati.	